ISSN: 3060-4613




| | | |
|---|---|---|
| 13.00.00 | 13.00.06 | 01.00.00 |
| 13.00.01 | 13.00.07 | 02.00.00 |
| 13.00.02 | 13.00.08 | 03.00.00 |
| 13.00.03 | 13.00.09 | 09.00.00 |
| 13.00.04 | 07.00.00 | 10.00.00 |
| 13.00.05 | 19.00.00 | 11.00.00 |

№6/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

*Elektron nashr. 160 sahifa, 5-iyun, 2025-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Mizayeva Faroxat Odiljonovna** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O‘. – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo‘icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Mizayeva Farokhat Odiljonovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
**Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich** – Doctor of Historical Sciences, Professor
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Iqim oʻzgarishi muammolari va "yashil koʻnikmalar"ning rivojlanishi....14
Abdurashit Karimovich Avliyaqulov

TTJlardagi qizlarni qoʻllab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish boʻyicha ilgʻor xorijiy mamlakatlar tajribasini oʻrganish....18
Xasanboy U. Abdusamatov

Integrativ yondashuv boʻlajak oʻqituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishning asosiy omili....26
Jalilov Nodirjon Azamatovich

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi....30
Gʻayibova Nargiza Anorbayevna

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari....33
Hakimova Gulmira Toʻxtatoshevna

Boʻlajak oʻqituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari....37
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi

Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda oʻzbek tilining ta'siri....41
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников....44
Умрихина Виктория Игоревна

Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода....52
Ахунова Умида Ойбековна

Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: oʻqitish va boshqaruvdagi oʻrni....55
Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi

Buxorodagi jadidchilik harakatining oʻziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi....60
Axrorov Ixtiyor Doniyorovich

Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va maktabning roli....63
Dadaboyev Jahongir Sherdil oʻgʻli

Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход....67
Сайфутдинова Насиба Нурматовна

Oʻyinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va oʻziga xosligi....75
Otasheva Lola Shotoʻrayevna

Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari....78
Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna

Rivojlanishida nuqsoni bor boʻlgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'limning oʻrni....81
B. Xusniddinova

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish....85
Zulaykho Samatovna Roʻziyeva

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ogʻzaki va yozma nutq koʻnikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi....89
Xudaybergenova Nawrızbiyke Qanat qızı

Sonlarni obrazlar bilan bogʻlash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi....92
Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna

Methodology of Teaching English to Preschool Children....96
Khurshida Tojimurodova

Malaka oshirish jarayonida yoʻriqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..100
Ch. B. Nalibayeva

Oʻqituvchilarning oʻquvchilar bilan hamkorlik munosabatlari....103
Gʻaniyeva Sayyora Saidmurod qizi

Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning oʻrni....106
Boymirzayeva Xurshida Sobirovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari ........ 110
**Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li**

An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development.. 113
**Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna**

O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ........ 118
**Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi**

Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ........ 123
**Jo'rayev Ilhom Isxoqovich**

Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ........ 126
**Muxlisa Satriddinovna Muhitdinova**

Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi ........ 132
**Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li**

Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ........ 136
**Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi**

Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari ........ 139
**Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi**

Nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda o'yinlarning o'rni ........ 143
**Jabborova Oltinoy**

Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati ........ 146
**Soliyev Umidjon Yulchivoyevich**

Ta'lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari ........ 150
**Uzaqov Nomozali Hamdamovich**

Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari ........ 153
**Z. M. Zarifova**

# MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNING SIBLING MUNOSABATLARI DIAGNOSTIKASI

G'ayibova Nargiza Anorbayevna
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi dotsenti
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uning oilada nechanchi farzand ekani, oilasida aka-uka va opa-singillarning borligi, tug'ruqlar orasidagi rasmiy farqlarga bog'liqligi, ya'ni sibling maqomi va sibling munosabatlari ta'siri ochib berilgan. Shaxs shakllanishida sibling maqomining roli yuzasidan olimlar fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlarini diagnostika qilish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, oilaviy munosabatlar, sibling maqomi, sibling munosabatlari, diagnostika, so'rovnoma, proyektiv metodikalar.

**Abstract:** The article examines the influence of sibling status and sibling relationships on the formation and development of a child's personality, i.e., the number of children in the family, the presence of siblings in the family, and age differences between siblings. The article presents the opinions of scientists on the role of sibling status in personality formation. It also examines methods for diagnosing relationships between siblings in preschool children.

**Key words:** family, family relationships, sibling status, sibling relationships, diagnostics, questionnaires, projective methods.

**Аннотация:** В статье рассматривается влияние сиблингового статуса и сиблинговых отношений на формирование и развитие личности ребёнка: количество детей в семье, наличие сиблингов в семье, возрастные различия между сиблингами. В статье представлены мнения учёных о роли сиблингового статуса в формировании личности. Также рассматриваются методы диагностики сиблинговых отношений у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** семья, семейные отношения, сиблинговый статус, сиблинговые отношения, диагностика, анкетирование, проективные методы.

## KIRISH

Oilada farzandlarning shaxs sifatida shakllanishi, har bir farzandning jamiyatda o'z o'rnini topa bilishi, ma'lum mavqega ega bo'lishi oiladagi shaxslararo munosabatlarga bevosita bog'liq. Oilaviy munosabatlar tizimi insonning aka-uka va opa-singillari, ya'ni siblinglari bilan bo'ladigan munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunda bolaning nechanchi farzand ekanligi, jinsi, oilasida aka-uka va opa-singillari borligi va ular orasidagi yosh farqi, ya'ni uning sibling maqomi ham alohida ahamiyatga ega.

Sibling munosabatlar inson uchun uzoq muddatli va ahamiyatli bo'lib, u murakkab va ikkiyoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, siblinglar oilada alohida tizimni tashkil etadigan yaqin qarindoshlardir. Ularni ota-ona, o'xshash yashash sharoiti va tarbiya, umumiy oilaviy qadriyatlar va an'analar, kundalik muloqot, ko'p sonli emotsional va amaliy aloqalar birlashtiradi. Boshqa tomondan, sibling munosabatlar – bu bolaning boshqa bolalar bilan bo'ladigan o'ziga xos munosabatidir. Uning o'ziga xosligi shundaki, bola siblingi bo'lishi yoki bo'lmasligini, siblingining jinsi yoki ota-onasining unga bo'lgan munosabatini nazorat qila olmaydi. Bu esa unda kichikligidan ambivalent kechinmalarni paydo qilishi mumkin. Ya'ni, bola siblingi bilan birga bo'lishni istashi, ayni paytda ota-onasi uchun yagona bo'lishni orzu qilishi ham mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiya fanida bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uning oilada nechanchi farzand ekani, oilasida aka-uka va opa-singillarning borligi, tug'ruqlar orasidagi rasmiy farqlarga bog'liqligi g'oyasini ilgari surgan olimlar A. Adler va Z. Freyd hisoblanadi. Ularning fikricha, sibling maqomi bolaning shaxsiga, kelajakda uning er-xotinlik va ota-onalik maqomlariga, do'stlari bilan o'rnatadigan munosabatlari xarakteriga, umuman

olganda, kelgusi hayotda oʻz oʻrnini topishiga taʼsir etadi. Tadqiqotlar natijalariga koʻra, sibling maqomining toʻrt turi farqlanadi: toʻngʻich farzand, oʻrtancha farzand, kenja farzand va yagona farzand.

A. Adlerning fikricha, bir oilada tarbiyalanayotgan bolalar uchun ijtimoiy vaziyat turlicha boʻladi. Oilada har bir keyingi farzandning tugʻilishi oldingi farzandlar hayot tarzining oʻzgarishiga (ota-onalar munosabatlari, oiladagi bolalar oʻzaro munosabatlari va boshqalar) sabab boʻladi. Shuning uchun ota-onalar ushbu oʻzgarishlar bilan bir qatorda farzandning yoshi va jinsini hisobga olgan holda muomala qilishlari siblinglar oʻrtasida tushunmovchiliklar boʻlmasligiga zamin yaratadi. Psixoanaliz namoyondasi Z. Freyd ham sibling munosabatlarning shaxs shakllanishiga taʼsiri haqida fikr yuritar ekan, eng asosiy eʼtiborni ular orasidagi ota-ona muhabbati uchun raqobat, oʻz jinsi va qarama-qarshi jinsli bolaning oiladagi qadrini qanday his qilganligiga qaratdi.

Psixolog olim L. S. Vigotskiy uch yoshlilar inqirozi haqida gapirar ekan, bola xulqida bu yoshda uchraydigan ayrim salbiy sifatlarning ifodalanishi oila tarkibiga va farzandlar soniga ham bogʻliqligini keltirib oʻtadi. Uning fikricha, yolgʻiz farzandli oilalarda hukmronlikka intilishni uchratish mumkin. Bu esa shu oilada tarbiya topayotgan bolada atrofdagilarga nisbatan hukmron munosabatda boʻlish maylini uygʻotadi.

Ingliz olimasi Judi Dann oʻz ishlarida oilada siblinglar oʻzaro munosabatlarini oʻrganib, uni beshta yoʻnalishga asoslanishini taʼkidlaydi. Ular: raqobat, bogʻliqlik, xavfsizlikni taʼminlash, yaqinlik (oʻzaro sirlar, samimiy hazillar), umumiy orzu-havaslardir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari oʻziga xos boʻlib, ularda bogʻliqlik munosabatlari yaqqolroq namoyon boʻladi. Masalan, koʻpgina maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar akasi yoki opasiga qattiq bogʻlanib qolishadi, ularni maʼlum muddat koʻrmasalar sogʻinib qolishadi, kelganlarida qattiq hayajon bilan kutib oladilar, ular bilan birgalikda oʻynab olamni oʻrganadilar. Garchi ularning yoshida, boʻyida, jinsida va mashgʻulotlarida tafovutlar boʻlsa-da, ushbu birgalikdagi faoliyat siblinglarning har biri uchun juda foydalidir, deb hisoblaydi Dann. Baʼzan ularning oralarida kelishmovchiliklar, janjallarning boʻlishi, gohida esa bir-birlariga yon bosib munosabatda boʻlishlari maʼlum maʼnoda ularni kelajakda oʻzgalar bilan boʻladigan shaxslararo munosabatlarga tayyorlaydi. Biri ikkinchisi uchun mavjud boʻlishi ularning xulqidagi ayrim oʻzgarishlarga sabab boʻladi. Bu oʻzgarishlar esa umrlarining oxirigacha saqlanib qolishi mumkin.

Danning eʼtirof etishicha, siblinglarning bir-biriga bogʻliqligi, hatto ota-onalarning farzandlariga bogʻliqliklaridan ham ustun turishi mumkin. U onalarning birinchi farzand bilan koʻproq emotsional aloqada boʻlishini, ikkinchi farzand tugʻilgandan keyin esa munosabatning oʻzgarishi bola xulqida ham oʻzgarishlar paydo qilishini taʼkidlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunga qadar psixologlar sibling maqomining shakllanayotgan shaxsning turli sohalariga – “Men” konsepsiyasi xususiyatlari, ijtimoiy sohadagi muvaffaqiyati, intellektual rivojlanish darajasi, kommunikativ kompetentlik yoki xulqdan ogʻishlarga va boshqalarga taʼsirini oʻrganishgan.

G. T. Xomentauskas siblinglar oʻrtasidagi raqobatni oʻrgandi. U ota-onalarni oilaga farzandlarning nigohi bilan qarashga undar ekan, har bir farzandning oilani idrok qilishi va har bir farzand uchun oiladagi vaziyat oʻzgacha ekanligini koʻrsatib berdi. Maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidagi bolalarning siblinglar oʻzaro munosabatlarini turli soʻrovnomalar va proyektiv metodikalar orqali oʻrganish mumkin. Jumladan, “Farzandlar oʻrtasidagi raqobatni aniqlash” soʻrovnomasi oiladagi farzandlar oʻrtasidagi raqobatning qay darajada ekanligini oʻrganishga qaratilgan. Soʻrovnoma ikki qismdan iborat. Birinchi qismdagi savollar maktabgacha yosh davri va kichik maktab yoshidagi bolalar, kichik oʻsmirlar uchun moʻljallangan boʻlib, bolaning ukasi yoki singlisiga boʻlgan raqobat hissini qay darajada ekanligini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi qismdagi savollar esa bolaning akasi yoki opasi bilan boʻladigan munosabatlarida raqobatning qay darajada ekanligini aniqlashtirib, maktabgacha yosh davridan boshlab barcha yosh davridagi sinaluvchilar uchun mos keladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Savolnomada keltirilgan savollarning har biriga sinaluvchi aniq “Ha” yoki “Yoʻq” deb javob berishi kerak boʻladi. Savolnomaning birinchi qismi quyidagi savollardan iborat: Agar senga bogʻliq boʻlganda, sen...

1. Doimo uka(singil)ing bilan oʻynar eding – ha/yoʻq.
2. Eng yaxshi koʻrgan oʻyinchoqingni bergan boʻlar eding – ha/yoʻq.
3. Uka(singil)ingni oʻzing bilan sayrga olib ketgan boʻlar eding – ha/yoʻq.
4. Uka(singil)ingni doimo himoya qilgan boʻlar eding – ha/yoʻq.
5. Uka(singil)ingga doimo gʻamxoʻrlik qilar eding – ha/yoʻq.

6. Ota-onangga doimo uni maqtar eding – ha/yo‘q.
7. Senda uka(singil)ing borligidan xursand bo‘lar eding – ha/yo‘q.
8. Ukang(singiling)ni yolg‘iz qoldirmaslik uchun u bilan uyda qolgan bo‘lar eding – ha/yo‘q.
9. Ukang(singiling)ga ertaklar aytib berar eding – ha/yo‘q.
10. Har doim uni bog‘cha(maktab)ga o‘zing olib borgan bo‘lar eding – ha/yo‘q.

Olingan javoblardan “Ha” va “Yo‘q” javoblari hisoblab chiqiladi. Qanchalik “Yo‘q” javoblari ko‘p bo‘lsa, sinaluvchida uka yoki singlisiga nisbatan shunchalik raqobat hissi kuchli bo‘ladi. “Yo‘q” javoblarining 6 tadan (60%) yuqori bo‘lishi sinaluvchi uchun oiladagi vaziyatning keskinligidan dalolat beradi.

Savolnomaning ikkinchi qismi quyidagi savollardan iborat: Agar senga bog‘liq bo‘lganda, sen...

1. Sening akang(opang) borligidan faxrlangan bo‘lar eding – ha/yo‘q.
2. Undan doimo o‘rnak olgan bo‘lar eding – ha/yo‘q.
3. Eng yaxshi do‘st kabi u bilan do‘stlashgan bo‘lar eding – ha/yo‘q.
4. Hammaga akang(opang) haqida gapirib bergan bo‘lar eding – ha/yo‘q.
5. Ota-onangga uni maqtagan bo‘lar eding – ha/yo‘q.
6. Uning dars tayyorlashiga halaqit bermagan bo‘lar eding – ha/yo‘q.
7. Otangga ham, onangga ham undan nolib bormagan (yomonlamagan) bo‘lar eding – ha/yo‘q.
8. Uy yumushlarini bajarishda unga yordam bergan bo‘lar eding – ha/yo‘q.
9. Shirinliklarni u bilan birga baham ko‘rgan bo‘lar eding – ha/yo‘q.
10. Barcha yaxshi narsalarni unga bergan bo‘lar eding – ha/yo‘q.

So‘rovnoma bo‘yicha olingan javoblardan “Ha” va “Yo‘q” javoblari hisoblab chiqiladi. Qanchalik “Yo‘q” javoblari ko‘p bo‘lsa, sinaluvchida aka yoki opasiga nisbatan shunchalik raqobat hissi kuchli bo‘ladi. “Yo‘q” javoblarining 6 tadan (60%) yuqori bo‘lishi sinaluvchi uchun oiladagi vaziyatning keskinligidan dalolat beradi. Demak, bunday natija egalari bilan korreksion ishlarni olib borish lozim bo‘ladi. Shuningdek, proyektiv metodikalar orqali ham bolaning oilasi va undagi munosabatlar tizimini o‘rganish mumkin. Masalan, “Oila rasmi”, Rene Jilning “Bolalarning shaxslararo munosabatlarini o‘rganish” metodikasi, “Oila sotsiogrammasi”, CHAT metodikasi shular jumlasiga kiradi.

## XULOSA

Bola shaxsining shakllanishida sibling munosabatlari muhim o‘rinni egallaydi. Shu sababli farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni yoshlikdan boshlab muvofiqlashtirish zarur. Oilada ota-onalarning farzandlariga nisbatan bir xilda, adolatli munosabatda bo‘lishi farzandlarning bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli bo‘lishiga xizmat qiladi va bu holat oila tinchligi hamda barqarorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Zero, siblinglar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bolaning oiladan tashqaridagi shaxslararo munosabatlariga hamda kelajakdagi turmush tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Siblinglar o‘rtasida ijobiy munosabatlarning qaror topishi nafaqat shaxs, balki oila va jamiyat farovonligi uchun ham manfaatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. 1. Баркан А.И. Практическая психология для родителей, или как научится панимат своего ребенка – М.: АСГ ПРЕСС, 1999. - 432с.
2. 2. Дрисколл Р., Икстейн Д. Порядок рождения и личность// Психологическая энциклопедия. Изд. 2-е/Под ред. Р.Корсини, А.Ауэрбаха. – СПб.: 2003. С.950.
3. 3. G‘ayibova N.A. Oilada farzandlar o‘zaro munosabatlarini o‘rganish. Metodik qo‘llanma. T.: 2014.-68 b.
4. 4. G‘ayibova N.A. Sibling maqomi va uning o‘smir shaxslararo munosabatlariga ta’siri. // Monografiya. – T., 2021.
5. 5. Крейг Г. Психология развития.– СПб.: Питер, 2000.– 992с.: ил.–/Серия “Мастера психологии”/. С. 539
6. 6. Суслова, Т.Ф., Шаповаленко И.В. Психология семьи с основами семейного консультирования: учебник и практикум для академического бакалавриата. - М.: Юрайт, 2016. – 343 с.
7. 7. Хоментаускас Г.Т. Семья глазами ребенка: Дети и психологические проблемы в семье. – Екатеринбург: Рама Паблишинг, 2010. –233 с.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI**

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.